


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – iqtisodiyotning "uchinchi sektori" ning asosiy yo'nalishlari

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi hozirgi zamон iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.


Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi ko'lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga etkazib berish, shu qatorida ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish. Shuningdek, sartaroshxonalar, restoranlar, ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari, sayyohlik agentliklari va boshqalar kiradi.



2019-yil 1-sentyabr holatiga viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 22073 tani tashkil etdi, ulardan 14102 tasi iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 63,9 % ga yetdi. Ularning o'sishi 24,5 % ga ko'paydi.

**2019-yil 1-sentyabr holatiga faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Zamonaviy tadbirkorlik ommaviylashmoqda, bu birinchi navbatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishiga, ushbu sohada kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat yuritishi uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog'liq.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining aniq miqdoriy ustunligi ushbu sohaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiyligi sonining 10761 tasi yoki 76,3 % kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisobiga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasi bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 57,8 % ni tashkil etdi. Ularning soni o'tgan yilga nisbatan 2616 taga ko'payib, o'sish sur'ati 32,1% ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan
kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tarkibi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-sentyabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (36,7 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 11,4 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.

**2019-yil 1-sentyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




- Savdo ● Tashish va saqlash ● Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa ● Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-sentyabr holatiga, xizmatlar sohasida 11326 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida eng katta qismini savdo xizmatlari - 32,3 %, tashish va saqlash - 9,8 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,6 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 4,2 %, axborot va aloqa - 1,8 %, boshqa turlar - 42,3 % ni tashkil etgan.

2019-yil 1-sentyabr holatiga xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan ko'rolganda 2776 taga ko'paydi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar sonini
2018-yilning mos davriga nisbatan ko'payishi
(2019-yil 1-sentyabr holatiga, birlikda)**




Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu sababli, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning soni 2616 birlikga ko'paydi.

2019 yil yanvar-avgust oylarida xizmat ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (2755 birlik) o'tgan yilga nisbatan 1436 taga ko'paydi.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni (2587 ta) 1592 taga ko'paydi.

**2019 yil yanvar-avgust oylarida xizmat ko'rsatish
sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar
va tashkilotlar soni, birlik**



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

**O'sish sur'ati
111,8 %**


**Hajmi 930,8
mlrd. so'mga
oshdi**

**Xizmatlar hajmi
4993,2
mlrd. so'm**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4993,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 930,8 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 11,8 % ni tashkil etdi.

Xizmatlarning umumiyligi hajmida Buxoro shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 62,4 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %




Shuningdek, eng katta ulush G'ijduvon (8,9 %), Vobkent (3,6 %), Buxoro (3,5 %) tumanlari va Kogon shahri (3,1 %) da qayd etilgan.

Xizmatlar sohasining eng past ko'satkichlari Qorovulbozor (1,8 %), Olot (2,2 %), Kogon (2,2 %) va Shofirkon (2,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda eng yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahri (113,7 %), Kogon (111,3 %), G'ijduvon (110,1 %), Jondor (109,7 %) va Shofirkon (109,4 %) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'satilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Nisbatan past o'sish sur'atlari Qorako'l (107,5 %) va Romitan (108,0 %) tumanlarida kuzatildi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
Buxoro viloyati	4993178,5	111,8	2235,2
Buxoro tumani	175864,2	109,1	1 074,3
Vobkent tumani	178100,4	109,3	1 296,2
Jondor tumani	112305,8	109,7	654,5
Kogon tumani	108463,7	111,3	1 416,0
Olot tumani	109511,5	108,8	1 119,7
Peshko' tumani	117308,0	109,3	972,7
Romitan tumani	139443,6	108,0	1 002,5
Shofirkon tumani	112623,9	109,4	644,3
Qorako'l tumani	132180,1	107,5	816,9
Qorovulbozor tumani	91368,8	100,1	5 048,0
G'ijduvon tumani	445345,3	110,1	1 485,0
shaharlar:			
Buxoro shahri	3116970,2	113,7	11192,0
Kogon shahri	153693,0	107,7	2527,8

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 455,5 ming so'mga oshdi va 2627,0 ming so'mga teng bo'ldi, o'sishi 10,0 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Buxoro shahri etakchi o'rinni egallaydi. Bu erda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 11 192,0 ming so'm ekvivalentida qayd etildi.

Shofirkon (644,3 ming so'm), Jondor (654,5 ming so'm), Qorako'l (816,9 ming so'm) tumanlarida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda nisbatan past.

2019-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm



**Shofirkon tumani -
644,3 ming so'm**

**Jondor tumani -
654,5 ming so'm**

**Qorako'l tumani -
816,9 ming so'm**

**Peshko' tumani -
972,7 ming so'm**

**Romitan tumani -
1002,5 ming so'm**

**Buxoro tumani -
1074,3 ming so'm**



**Buxoro shahri -
11192,0 ming so'm**

**Qorovulbozor tumani -
5048,0 ming so'm**

**Kogon shahri -
2527,8 ming so'm**

**G'ijduvon tumani -
1485,0 ming so'm**

**Kogon tumani -
1416,0 ming so'm**

**Vobken tumani -
1296,2 ming so'm**


**Olot tumani -
1119,7 ming so'm**

2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 319,8 ming so'mga oshdi.

Buxoro shahrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2173,9 ming so'mga oshdi.

Shu bilan birga, shu hudud bo'yicha o'tgan davrga nisbatan 1617,1 ming so'mga o'sish kuzatilmogda.

2019-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



**2019-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	4993178,5	111,8
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	242197,5	112,3
Moliyaviy xizmatlar	700489,9	176,0
Transport xizmatlari	1257249,8	104,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1151097,5	101,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	219940,9	102,1
Savdo xizmatlari	1594111,8	104,2
Ko'chmas mulk bilan bog'lilq xizmatlar	130234,9	103,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	211046,3	113,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	91921,7	106,9
Ijara xizmatlari	132126,1	101,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	108494,5	102,6
Shaxsiy xizmatlar	106362,3	103,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	66968,0	105,4
Boshqa xizmatlar	132034,8	103,4


Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha ko'rileyotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tarkibidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, Internet xizmatlari, maishiy, sog'lioni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.

Savdo tarixiy jarayonning eng qudratli omillaridan biri hisoblanadi. Tarixda bunday davr yo'qki, ijtimoiy hayotga uning ta'siri kamroq yoki ko'proq darajada ko'rsatilmagan payti bo'limgan, mamlakat ichida oddiy ayriboshlash bilan boshlanib va butun dunyo bo'yicha tarqalgan murakkab tijorat operatsiyalari tarmog'i bilan yakunlanadi.

Har xil turdag'i savdo munosabatlari doimo ijtimoiy hayotning turli jihatlariga javob beradi.

Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida savdo xizmatlari ulushi eng katta 31,9 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Shu bilan birga, eng yuqori ulush transport xizmatlari (25,2 %), moliyaviy xizmatlar (14,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (4,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (4,4 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (4,2 %), shuningdek ijara xizmatlarida (2,7 %) kuzatildi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Savdoda qisqa vaqt ichida uning kichik chakana tashkilotlari - chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, engil konstruktsiyali pavilonlar va yarmarka turlarining soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi tezda hal qilindi, xaridor mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynaydi, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtaqidagi bog'liqlikni amalga oshiradigan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, shuningdek, ularning turlari va sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.


2019-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 31,9 % ni tashkil etib, bu 1594,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiyligi savdo xizmatlari hajmining to'rtdan uch qismidan ko'proq – 81,1 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 12,2 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-avgust oylari uchun savdo xizmatlari tarkibi, %



Boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda savdo xizmatlarining yuqori ulushi Buxoro shahri (42,5 %), G'jduvon (14,7 %) va Buxoro (5,4 %) tumanlarida kuzatildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlarning savdo xizmatlaridagi ulushi, %



Nisbatan kam ulush Qorovulbozor (1,6 %), Jondor (3,4 %), Shofirkon (3,4 %) va Olot (3,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Bugungi kunda viloyatimizda transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga va barcha yo'nalishlarda hamda transportning barcha turlarida yuklar va yo'lovchilarni tashishda mamlakatning ehtiyojlarini qondirish uchun noyob imkoniyatlarga ega.


2019-yil yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari hajmi 1257,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 161,0 mlrd. so'mga oshdi.

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'gri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2019 yil yanvar-avgust oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 58,5 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 41,5 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida tashish turlari bo'yicha avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Bugungi kunda etakchi o'rirlarni nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 700,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 311,9 mlrd. so'mga oshdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 88,9 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnologiyalari, aloqa vositalari bilan jihozlanganligi kuzatilmogda.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 242,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 112,3 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'l doshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 95,8 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilik xizmatlari 2,0 %, axborotlashtirish xizmatlari – 0,6 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,5 %, boshqa xizmatlar -1,1 % ni tashkil etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.



2019-yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 211,1 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 13,5 % ni tashkil etdi.


2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

2019-yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida ta'lif sohasidagi xizmatlarning hajmi, mlrd. so'm




Ko'rsatilgan ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Buxoro shahrida qayd etildi. 2019-yil yanvar-avgust oylarida 143,7 mlrd. so'mga yetdi.

Buning sababi, oliy o'quv yurtlari hamda to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatadigan xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarining katta qismi bu erda joylashganlidadir.

2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil etdi, hajmi esa 34,2 mlrd. so'mga oshdi va 219,9 mlrd. so'mga etdi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 85,3 % bilan ustunlik qiladi.


2019-yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 5,9 mlrd. so'mga oshdi, ulushi 14,7 % ni tashkil etdi. Ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjilar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida sog'lqn ni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 91,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,9 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida sog'lqn ni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atining taqposlanishi, %



Viloyatda sog'lqn ni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

Shahar va tumanlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha etakchi o'rinni Buxoro shahri egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 7,6 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 50,9 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori hajm G'ijduvon (8,2 mlrd. so'm), Buxoro (8,2 mlrd. so'm) tumanlari va Kogon shahri (3,9 mlrd. so'm) da qayd etildi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir.

Mamlakatimizda post-industriyadan keyingi axborot jamiyati shakllanar ekan, aholining ehtiyojlari tobora o'sib borishi va ularning xilma-xilligi kengayib borayotganligi sababli, xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora ortib bormoqda.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

65-223-79-41